

UYG‘ONISH DAVRI ADABIYOTINING BUYUK DRAMATURGI SHEKSPIRNING  
“HAMLET” TRAGEDIYASI HAQIDA

Axmatova Ra’no

TerDu talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20229955>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada William Shakespearing “Hamlet” tragediyasining badiiy-falsafiy mazmuni, asardagi inson ruhiyati talqini hamda adolat va haqiqat izlanishi masalalari tahlil qilinadi. Tragediyada Daniya shahzodasi Hamlet obrazining ichki kechinmalari, uning burch va vijdon o‘rtasidagi ruhiy kurashi, qasos motivining falsafiy mohiyati ochib beriladi.

Shuningdek, saroy muhitidagi axloqiy inqiroz, xiyonat va sadoqat qarama-qarshiligi, hokimiyat uchun kurashning fojeali oqibatlari badiiy jihatdan yoritiladi. Maqolada asarning dramatik konflikti, qahramonlar xarakteri hamda tragediyaning jahon adabiyotidagi o‘rni ilmiy-nazariy asosda baholanadi.

**Kalit so‘zlar:** Shekspir, Hamlet, Ota arvohi, Klavdiy, Gertruda, Ofeliya, Poloniy, tragediya, Daniya, xiyonat.

**Аннотация.** В данной статье анализируются художественно-философское содержание трагедии Уильяма Шекспира «Гамлет», особенности интерпретации человеческой психологии в произведении, а также проблемы поиска справедливости и истины. В трагедии раскрываются внутренние переживания образа датского принца Гамлета, его духовная борьба между долгом и совестью, а также философская сущность мотива мести. Кроме того, художественно освещаются нравственный кризис придворной среды, противостояние предательства и верности, а также трагические последствия борьбы за власть. В статье на научно-теоретической основе оцениваются драматический конфликт произведения, характеры героев и место трагедии в мировой литературе.

**Ключевые слова:** Шекспир, Гамлет, призрак отца, Клавдий, Гертруда, Офелия, Полоний, трагедия, Дания, предательство.

**Annotation.** This article analyzes the artistic and philosophical content of William Shakespeare’s tragedy Hamlet, the interpretation of human psychology in the work, as well as the issues of the search for justice and truth. The tragedy reveals the inner experiences of Prince Hamlet of Denmark, his spiritual conflict between duty and conscience, and the philosophical essence of the motif of revenge. The article also highlights the moral crisis of the royal court environment, the opposition between betrayal and loyalty, and the tragic consequences of the struggle for power. Furthermore, the dramatic conflict of the play, the characters’ features, and the place of the tragedy in world literature are evaluated on a scientific and theoretical basis.

**Keywords:** Shakespeare, Hamlet, Ghost of the Father, Claudius, Gertrude, Ophelia, Polonius, tragedy, Denmark, betrayal.

Uyg‘onish davri adabiyotining yirik vakili William Shakespeare (talaffuzi: Uilyam Shekspir; 26-aprel 1564-yil — 23-aprel 1616-yil) — ingliz dramaturgi, shoir va aktyor, dunyoning eng mashhur dramaturglaridan biri, kamida 17 ta komediya, 10 ta xronika, 11 ta fojia, 5 ta poema va 154 sonetdan iborat siklning muallifi.

Taxminan, 1585-yilda ona shahri Stratford-upon-Avonni tark etib, birmuncha fursatdan so'ng Londonga borgan. Teatr aktyori va dramaturg sifatidagi faoliyati 1580-yildan boshlangan. Shakespearening 1603-yildan keyingi aktyorlik faoliyati to'g'risida biror ma'lumot yo'q. Ammo u o'zining „Lordkamerger xizmatkorlari“ truppasi uchun (mazkur truppa James I ning taxtni egallaganidan keyin qirol truppasi deb atalgan) pyesalar yozishda davom etgan. Taxminan, 1612-yilda Stratford-upon-Avon shahriga qaytib kelgan va shu yerda vafot etgan. Shakespearening aktyor sifatidagi faoliyati taxminan 15 yil davom etgan. U Angliyaning eng yaxshi hisoblangan truppasida ikkinchi darajali rollarni ijro etgan va shu truppa uchun pyesalar yozgan.

Shakespearening butun ijodini nurlantirib turuvchi fazilat yuksak axloqiy-ma'naviy muammolarning tasviridir. „Romeo va Julieta“ lirik, „Yuliy Sezar“ siyosiy, „Hamlet“ intellektual tragediya, „Otello“ esa ehtiroslar tragediyasi hisoblansada, ular zamirida o'rta asarlar uchun ham, hozirgi zamon uchun ham katta ahamiyatga molik bo'lgan axloqiy masalalar yotadi. Agar „Yuliy Sezar“, „Hamlet“, „Makbet“, „Romeo va Juliet“ singari asarlarda tasvirlangan dramatik konflikt qahramonlarga o'zini bilish, o'zining ruhiy kuchini ro'yobga chiqarish imkonini bergan bo'lsa, Otello, Lir singari adashgan qahramonlar ongi faqat fojea ro'y berib, muqarrar halokat yaqinlashganidan keyingina nurlanib ketadi. Shunga qaramay, ularning har biri va umuman Shakespeare asarlarining qahramonlari asosan qat'iy xarakterga ega bo'lgan, ongi va axloqiy qarashlari shakllangan, voqelikka hushyor ko'z bilan qarovchi, kuchli va mard insonlardir.

Shakespearening o'zbek tomoshabini tomonidan kashf etilishi 1935-yilda „Hamlet“ tragediyasining Hamza nomidagi drama teatri (hozirgi O'zbek milliy akademik drama teatri) da sahnalashtirilishi bilan boshlangan. Bu tragediya yozilish uslubi, voqealar rivoji, turli qahramonlar va xarakterlari bilan boshqa tragediyalardan ajralib turadi. „Hamlet“ (ayrim manbalarda rus tili ta'sirida Gamlet o'laroq yoziladi) (inglizcha: Hamlet), to'liq nomi „Daniya shahzodasi Hamlet tragediyasi“ (inglizcha: The Tragedy of Hamlet, Prince of Denmark) — William Shakespeare 1599–1602-yillar o'rtasida yozgan tragediya. „Hamlet“ pyessasini rus tilidan o'zbek tiliga ilk bor 1934-yilda Abdulhamid Cho'lpon tarjima qilgan. Asarning 1948-yilda Maqsud Shayxzoda tomonidan rus tilidan o'zbek tiliga qilingan tarjimasi ham xalq orasida keng ommalashgan.

Keyinchalik pyessani 1991-yili Jamol Kamol asliyatdan, ya'ni ingliz tilidan o'zbek tiliga o'g'irgan. Pyessa o'zbek tilida bir necha marta, jumladan, bir jildi „Pyessalar“ (1960), besh jildli „Tanlangan asarlar“ (1983) (3-jild) hamda uch jildli „Saylanma“ (2007) (1-jild) asarlarida bosilib chiqqan.

Hamlet...Asardagi voqea-hodisalar Daniya qirolligida sodir bo'lib, Daniya shahzodasi Hamletning fojeali taqdiri tasvirlanadi. Asar mulozimlarning navbatchiligidan sodir bo'lgan g'alati voqeadan boshlanadi. Qo'richilikda turgan ikki mulozim bir arbobi ko'rib qolishadi va bu haqida shahzoda Hamletga ma'lumot berishadi. Hamlet arvojni ko'rish uchun tunda qo'riqchilikka otlanadi. Shu tariqa voqealar rivoji keskin tus oladi. Arvoh Hamletning otasining ruhi bo'ladi va u o'g'liga qanday o'ldirilgani haqida aytib beradi va o'g'lini qasos olishga chorlaydi. Hamlet bor haqiqatni bilgandan ancha tushkunlikka tushib qoladi. Bu vaqtda Qirolicha Gertruda erining qotili va akasidan so'ng taxtga o'tirgan yovuz qahramon Klavdiy bilan turmush quradi. Bu to'y masalasi Hamletga qattiq ta'sir qiladi va qasos olish yo'lini izlay boshlaydi. Biroq u shoshqaloqlik qilmaydi, har bir harakatni chuqur o'ylab bajarishga intiladi.

Aynan shu ichki kurash uning ruhiy iztiroblarini yanada kuchaytiradi. Hamlet obrazi jahon adabiyotidagi eng murakkab va chuqur obrazlardan biridir. U oddiy qasoskor emas, balki fikrlovchi, adolatni izlovchi, haqiqat uchun kurashuvchi shaxs sifatida gavdalanadi. Asarni o‘qib borar ekanmiz Hamletning “Yetti o‘lchab bir kesadigan” yetuk shaxs ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

Hamletning harakati va ichki monologlari tragediyaning markaziy qismidir. U odamlar oldida maskara bo‘lishni, o‘z niyatlarini yashirishni va harakatini kechiktirishni tanlaydi. Sahnada aktyorlar tomoshasini tashkil etish Hamletning strategik tafakkurini namoyish qiladigan eng muhim voqealardan biridir. Hamlet sahnada aktyorlar tomonidan sahnalashtirilgan o‘yin orqali Klavdiyning qirolni o‘ldirganini aniqlashni xohlaydi. Bu sahna Hamletning faqat ichki kurashini emas, balki uning aqlli harakatini ham ko‘rsatadi. U shaxsiy emotsiyalar va ijtimoiy vaziyatni uyg‘unlashtirgan holda, o‘z maqsadini amalga oshirish uchun mas’uliyatli va ehtiyotkor yondashadi. Klavdiyning xatti-harakatlari, sahna asari namoyish etilgan paytda o‘zini tutishi, Hamletga uning qotil ekanligini yaqqol ko‘rsatib beradi.

Hamlet va Gertruda o‘rtasidagi sahna — tragediyaning eng dramatik va emotsional jihatlarni namoyish etuvchi qismi hisoblanadi. Ushbu suhbat asarda nafaqat Hamletning ichki kurashi, balki onaning psixologiyasi, oilaviy munosabatlar va ijtimoiy axloq masalalarini ham yoritadi. Bu sahnada Hamletning ruhiy kurashi va tafakkuri yanada ochiladi. U nafaqat onasini tanqid qiladi, balki o‘z ichki azobini ham monolog tarzida ifodalaydi. Shu bilan birga, u onasining xatti-harakatini to‘g‘rilashga harakat qiladi, uni xiyonat yo‘lidan qaytarishga intiladi. Shu sababli sahna nafaqat shaxsiy, balki axloqiy va falsafiy ziddiyatlar markazi hisoblanadi. Hamlet va Gertruda o‘rtasidagi suhbat inson ruhiyati, oila, xiyonat va axloqiy qarorlar masalalarini chuqur yoritadi. Shu sahna orqali Shakespeare, qahramonlar ichki kechinmalarini, insonning shaxsiy va ijtimoiy ziddiyatlarini dramatik tarzda o‘quvchi va tomoshabinga yetkazadi.

Ofeliya — Shekspirning “Hamlet” tragediyasidagi eng dramatik va emotsional personajlardan biri. U Hamletning sevgi objekti sifatida boshlab, oxir-oqibat shaxsiy va oilaviy ziddiyatlar markazida halok bo‘ladi. Ofeliya asarda xiyonat, fidoyilik va ruhiy zaiflik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Ofeliya obrazini tushunish uchun esa uning oilaviy va ijtimoiy muhitini hisobga olish kerak. U Poloniyning qizi va Laertning singlisi bo‘lib, oilaviy majburiyatlar, ota qaramog‘i uning harakatlarini shakllantiradi. Hamletga bo‘lgan sevgisi ham shaxsiy istaklar bilan emas, balki oilaviy va ijtimoiy chegaralar bilan uyg‘unlashgan. Shu sababli, u Hamlet bilan bo‘lgan munosabatlarda ko‘pincha passiv va itoatkor obrazda tasvirlanadi. Ofeliya sahnalari orqali Shekspir inson ruhiyatining nozik va zaif tomonlarini namoyish qiladi. U o‘z ichki azobini qo‘shiq, monolog va harakatlari orqali ifodalaydi. Ofeliya obrazining badiiy roli nafaqat sevgi va fidoyilikni, balki insonning ijtimoiy va oilaviy sharoitlar ta‘sirida qanday aziyat chekishini yoritadi. U Hamletning ichki kurashi va dramatik syujet orqali o‘quvchiga inson ruhiy zaifligi, xiyonat va yo‘qotishning ta‘sirini yetkazadi. Shu jihat bilan Ofeliya Shekspir tragediyasida falsafiy va psixologik timsolga aylanadi.

“Hamlet” tragediyasida kulminatsiya — voqealar eng yuqori dramatik taranglikka yetgan, barcha ziddiyatlar va syujet chiziqlari bir-biriga to‘qnashgan nuqtadir. Bu asarda kulminatsiya Hamletning adolatni tiklash harakati va asosiy mojarolar markazida sodir bo‘ladi.

Kulminatsiya sahnasi asarning oxirgi choraklari — Hamlet, Klavdiy, Laert kabi asosiy personajlar oʻrtasidagi qarama-qarshiliklar bilan bogʻliq. Hamlet uzoq davom etgan ichki kurashdan soʻng, nihoyat oʻz maqsadini amalga oshirishga yaqinlashadi. Shu sahnada Hamletning barcha ichki kechinmalari va kechiktirilgan harakatlari tashqi voqealar bilan uygʻunlashadi.

Hamlet Laert bilan jang sahnasida ularning bir qilichdan zaharlanishi, bitta qilich uch kishining umriga zomin boʻlgani va bundan tashqari qirolicha Gertrudaning zaharli sharob ichib halok boʻlishi ayanchli tasvirlangan.

“Hamlet” tragediyasi shaxsiy va ijtimoiy axloqiy qarorlar, insoniy hissiyotlar, xiyonat va adolat izlash kabi mavzularni chuqur tahlil qiladi. Hamletning “Boʻlish yoki boʻlmaslik” monologi insonning hayot va oʻlimni anglashidagi ichki kurashini ifodalaydi. Shu jihat bilan asar inson ruhiyati, tafakkuri va axloqiy tanlovlarning badiiy ifodasidir. Shuningdek, asarda syujetning kuchli kulminatsiyasi, dramatik sahnalar va personajlar oʻrtasidagi murakkab munosabatlar orqali oʻquvchiga chuqur taʼsir koʻrsatiladi. Shekspir badiiy vositalardan - metafora, monolog, sahnadagi syujetlik vositalardan samarali foydalangan. Asarning asosiy gʻoyasi — adolat uchun kurashish, haqiqatni tiklash va insonning maʼnaviy masʼuliyatini koʻrsatishdan iborat. Shekspir bu tragediya orqali inson qalbidagi murakkab kechinmalarni, jamiyatdagi adolatsizlikni va hokimiyat uchun kurashning fojeali oqibatlarini ochib beradi. Shuningdek, asarda sadoqat, xiyonat, doʻstlik va vijdon kabi tushunchalar ham muhim oʻrin tutadi. Hamletning doʻsti Horatsio sadoqat timsoli boʻlsa, Klavdiy xiyonat va zulm timsoli sifatida tasvirlangan.

<b>Poloniy va Laert</b>	asardagi siyosiy va oilaviy mojarolarni kuchaytiruvchi personajlar.
<b>Hamlet</b>	asarning bosh qahramoni, oʻz ichki kurashi va tafakkuri orqali inson ruhiyatini yoritadi. U adolat va xiyonat, hayot va oʻlim masalalarini oʻrganadi.
<b>Klavdiy</b>	qirolni oʻldirgan salbiy qahramon. U Hamletning ichki kurashining asosiy sababchisidir.
<b>Gertruda</b>	Hamletning onasi, Daniya qirolining rafiqasi. Asarda ona muhabbati, shaxsiy zaiflik, qarama-qarshilik timsoli sifatida tasvirlangan.
<b>Ofeliya</b>	Poloniyning qizi va Hamletning sevgi objekti. Insonning ichki azobi, sevgi va ijtimoiy cheklovlar taʼsiridagi zaiflikni dramatik va falsafiy timsol orqali namoyish qiladi.

Uilliam Shekspirning “Hamlet” tragediyasi inson ruhiyati va axloqiy kechinma masalalarini eng chuqur badiiy tarzda yoritgan asar sifatida tarixda o‘ziga mustahkam o‘rin egallagan. Tragediya nafaqat tashqi voqealar — qirolning o‘ldirilishi, qirollikni egallash, oila va sevgi mojarolari — bilan qiziqarli, balki insoniy his-tuyg‘ular, ichki kurash va tafakkur orqali dramatik kuchga ega. Asarda insonning xiyonat, adolat, sevgi, fidoyilik, o‘lim va hayot haqidagi murakkab qarorlarini yoritadigan falsafiy qatlam mavjud.

Hamletning ruhiy kurashi, uning ichki monologlari va strategik harakatlari asarning markazini tashkil qiladi. U ichki ziddiyatlar va tafakkur orqali o‘z maqsadini amalga oshiradi, ammo bu yo‘l nafaqat shaxsiy azob, balki boshqalarning halokati bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Shu jihat Hamletning obrazini insoniy murakkablik va tafakkur timsoli sifatida kuchli qiladi.

Umuman olganda, “Hamlet” tragediyasi inson ruhiyati, tafakkuri va axloqiy qarorlarni yoritishda abadiy ahamiyatga ega. Bu asar insoniyatning ichki kurashi, sevgi va xiyonat, adolat va o‘lim masalalarini dramatik va falsafiy badiiy uslubda o‘quvchi va tomoshabinga yetkazadi. Shu jihatdan, “Hamlet” nafaqat adabiyotning buyuk namunasi, balki insoniy tafakkur va ruhiyatni anglashning yuksak maktabi sifatida tarixda o‘rnini saqlab qolgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boynazarov.F. Jahon adabiyoti. Toshkent: “Musiqqa” Nashriyoti 2006.— 45-46b
2. Uiliyam.Sh. Tanlangan asarlar. 5-jildlik.3-jild. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti 1983.
3. Shekspir."Romeo va Julyetta"-Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2001.
4. Shvedov Yu. Uilyam Shekspir. Tadqiqot. M., 1975 yil.
5. Anikst A.A. Gamlet. Shekspir to‘plami / Ed. Aniksta A.A va Shtayn A. M.: Nauka, 1961 yil
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Hamlet>